

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIVLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINING METODIK IMKONIYATLARI

Axmedova Mastura Jamoliddinovna

Guliston davlat universiteti, tayanch doktorant.

e-mail: mastura09011987@gmail.com .ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-3612-0380>

Annotatsiya.

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishda ona tili va o'qish savodxonligi darslarining didaktik hamda metodik imkoniyatlari ilmiy-nazariy va tajriba-sinov nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Kreativlik kompetensiyasi g'oya yaratish, fikrni dalillash, kommunikativ ifoda, moslashuvchanlik va o'z-o'zini tahlil qilishning o'zaro bog'liq birligi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda matnni anglash va qayta talqin qilish, savol qo'yish, muqobil yakun yaratish, til birliklarini transformatsiya qilish, dalillash, multimodal mahsulot yaratish va mezonli baholash ona tili hamda o'qish savodxonligi darslarining asosiy metodik imkoniyatlari sifatida ajratildi. KOB, K-5B, SDN, KGT, KOTT, KRH va KDT metodlari "g'oya → dalil → ifoda → o'z-o'zini tahlil qilish" izchilligiga birlashtirildi.

Kalit so'zlar: kreativlik kompetensiyasi, boshlang'ich ta'lim, ona tili, o'qish savodxonligi, matn bilan ishlash, kreativ topshiriq, dalillash, innovatsion ta'lim muhiti, refleksiya.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ УРОКОВ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Ахмедова Мастура Джамолитдиновна

Гулистанский государственный университет, базовый докторант.

Аннотация.

В статье с научно-теоретических и опытно-экспериментальных позиций анализируются дидактические и методические возможности уроков родного языка и читательской грамотности в развитии креативной компетентности учащихся начальных классов. Креативная компетентность рассматривается как взаимосвязанное единство генерирования идей, аргументации, коммуникативного выражения, гибкости и самоанализа. В качестве основных методических возможностей выделены понимание и переосмысление текста, постановка вопросов, создание альтернативного финала, преобразование языковых единиц, аргументация, создание мультимодального продукта и критериальное оценивание. Методы КОВ, К-5В, SDN, KGT, KOTT, KRH и KDT объединены в последовательность «идея → доказательство → выражение → самоанализ».

Ключевые слова: креативная компетентность, начальное образование, родной язык, читательская грамотность, работа с текстом, творческое задание, аргументация, инновационная образовательная среда, рефлексия.

METHODOLOGICAL OPPORTUNITIES OF MOTHER TONGUE AND READING LITERACY LESSONS IN DEVELOPING PRIMARY SCHOOL STUDENTS' CREATIVE COMPETENCE

Axmedova Mastura Jamoliddinovna

Gulistan State University, Basic Doctoral Student.

Abstract.

This article analyses the didactic and methodological potential of Native Language and Reading Literacy lessons for developing primary school pupils' creative competence from theoretical and experimental perspectives. Creative competence is interpreted as an integrated unity of idea generation, argumentation, communicative expression, flexibility and self-analysis. The major methodological opportunities identified include text comprehension and reinterpretation, question generation, alternative endings, transformation of language units, evidence-based reasoning, multimodal product creation and criterion-referenced assessment. The KOB, K-5B, SDN, KGT, KOTT, KRH and KDT methods were integrated into the sequence "idea → evidence → expression → self-analysis".

Keywords: creative competence, primary education, native language, reading literacy, text work, creative task, argumentation, innovative educational environment, reflection.

Kirish. Raqamli axborot oqimining kengayishi, bilimlarning tez yangilanishi va kommunikativ vaziyatlarning murakkablashuvi boshlang'ich ta'lim natijalariga qo'yilayotgan talablarni o'zgartirmoqda. Endilikda o'quvchi faqat matnni o'qishi, qoidani eslab qolishi yoki tayyor javobni takrorlashi bilan cheklanmay, axborotni saralashi, mazmunni tahlil qilishi, muammoga bir necha nuqtayi nazardan yondashishi, yangi g'oya ilgari surishi va o'z fikrini dalillar bilan asoslay olishi zarur. OECDning PISA 2022 doirasidagi yondashuvda kreativ fikrlash g'oyalarni yaratish, baholash va takomillashtirish orqali original hamda samarali yechimga erishish qobiliyati sifatida talqin etiladi [2; 3]. PIRLS tadqiqotlarida esa matndan axborotni topish, xulosa chiqarish, mazmunni talqin qilish va baholash o'qish savodxonligining muhim jarayonlari sifatida belgilanadi [4]. Bu ikki yo'nalishning kesishgan nuqtasi matnni tushunishdan yangi mazmun yaratishga o'tish jarayonidir.

Boshlang'ich sinf yoshi kreativlik kompetensiyasini shakllantirish uchun pedagogik jihatdan qulay davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda bolalarda yangilikka qiziqish, savol berish ehtiyoji, obrazli tasavvur, o'yin orqali o'rganish va tajriba qilishga moyillik yuqori bo'ladi. Shu bilan birga, fikrni mantiqiy tartibda ifodalash, matndan dalil topish, o'z qarorini asoslash, bir vaziyat uchun muqobil yechim taklif qilish va bajarilgan ishga refleksiv baho berish kabi murakkab harakatlar endigina tarkib topadi. Demak, tabiiy qiziqishning o'zi yetarli emas; u metodik yo'naltirish, psixologik xavfsiz muhit, izlanishga undovchi topshiriqlar va qo'llab-quvvatlovchi baholash bilan uyg'unlashtirilishi lozim.

Kreativlikni faqat noodatij javob yoki ko'p g'oya aytish bilan tenglashtirish metodik jihatdan biryozlama yondashuvdir. J. P. Guilford kreativ tafakkurning ravonlik, moslashuvchanlik va originallik ko'rsatkichlarini ajratgan bo'lsa, E. P. Torrance muammoni sezish, taxmin ilgari surish, uni sinash, qayta ko'rib chiqish va natijani ifodalash jarayoniga urg'u beradi [9; 10]. A. Craft boshlang'ich ta'lim uchun ayniqsa ahamiyatli bo'lgan kundalik "kichik kreativlik" konsepsiyasida o'quvchining o'zi uchun yangi bo'lgan mazmunli yechimni qadrlash zarurligini asoslaydi [11]. Shuning uchun kreativlik kompetensiyasi g'oya yangiligi bilan birga uning vazifaga mosligi, dalilliligi, ifoda aniqligi va takomillashtirilish imkoniyatini ham qamrab oladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslari mazkur kompetensiyani rivojlantirish uchun tabiiy didaktik imkoniyatlarga ega. Ona tili darslarida o'quvchi so'z, gap, matn va nutqiy vaziyatlar bilan ishlash jarayonida fikrni qayta quradi, so'z tanlaydi, mazmunni boyitadi, bir fikrni turli usulda ifodalaydi va til vositalarining ta'sir kuchini anglaydi. O'qish savodxonligi darslarida esa matn qahramon, voqea, muammo, sabab-oqibat, muallif pozitsiyasi va hayotiy xulosa bilan ishlash maydoniga aylanadi. "Nima bo'ldi?" savolidan "Nega shunday bo'ldi?", "Boshqacha bo'lishi mumkinmi?", "Qahramon boshqa qaror qilganida voqea qanday davom etardi?" kabi savollarga o'tish o'quvchini reproduktiv faoliyatdan analitik va kreativ faoliyatga olib kiradi [5; 6].

Tadqiqotlar kreativ natijaning faqat individual qobiliyatga emas, balki bilim, motivatsiya, topshiriqning ochiqqligi, ijtimoiy muhit va hamkorlikka bog'liqligini ko'rsatadi. T. M. Amabile sohaga oid bilim, kreativ jarayon ko'nikmalari, ichki motivatsiya va ijtimoiy muhitning birligini ta'kidlaydi [12]. R. K. Sawyer kreativ g'oyalar ko'pincha hamkorlikdagi fikr almashish jarayonida bosqichma-bosqich boyishini ko'rsatadi [13]. J. Dewey tajribaga asoslangan ta'limda kuzatish, taxmin, tekshirish va mulohaza yuritishni bilim hosil qilishning faol mexanizmi sifatida izohlaydi [14]. Bu qarashlar ona tili va o'qish savodxonligi darslarida individual fikr, juftlikdagi aniqlashtirish, guruhdagi boyitish va umumiy muhokamadagi himoyani o'zaro bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston ta'lim siyosatida ham o'quvchilarni mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va bilimni amaliy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida yangi avlod darsliklari, metodik qo'llanmalar, mobil ilovalar va multimedia dasturlarini yaratish vazifasi ta'lim mazmunini o'quvchi faolligi hamda mustaqil izlanishiga mos ravishda yangilashni talab qiladi [1]. Mazkur talablar boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning aniq metodik mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini kuchaytiradi.

Mavjud ilmiy ishlarda kreativlikning psixologik asoslari, ijodiy fikrlash indikatorlari, ona tili ta'limida nutqni rivojlantirish va matn ustida ishlash metodikasi alohida yoritilgan. Biroq ushbu yo'nalishlarni "g'oya → dalil → ifoda → o'z-o'zini tahlil qilish" izchilligida birlashtiruvchi, fan mazmuni, faoliyat shakllari, metodlar, vositalar va mezonli baholashni yaxlit tizimga keltiruvchi yondashuvga ehtiyoj mavjud. Maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishda ona tili va o'qish savodxonligi darslarining metodik imkoniyatlarini aniqlash, ularni tizimlashtirish hamda tajriba-sinov natijalari asosida samaradorligini yoritishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari 2024–2025 va 2025–2026 o'quv yillari davomida Jizzax viloyatining Jizzax shahridagi 19-maktab hamda Zarbdor tumanidagi 8-maktab, Buxoro viloyatining Buxoro shahridagi 5-maktab va Buxoro tumanidagi 3-maktab, Toshkent shahrining Olmazor tumanidagi 243-maktab hamda Chilonzor tumanidagi 200-maktab bazasida olib borildi. Tadqiqotda 718 nafar 3–4-sinf o'quvchisi qatnashdi: 358 nafar o'quvchi tajriba guruhiga, 360 nafari nazorat guruhiga kiritildi. Innovatsion ta'lim muhiti va hamkorlik shart-sharoitlarini aniqlash maqsadida 76 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi hamda 665 nafar ota-ona diagnostik so'rovlarga jalb etildi.

Guruhlarni shakllantirishda hududiy va ijtimoiy-pedagogik stratifikatsiya, sinf parallelligi va dastlabki ko'rsatkichlar bo'yicha moslashtirish usulidan foydalanildi. Dastlabki diagnostika natijalari tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich holati o'zaro yaqin ekanini ko'rsatdi. Bu holat shakllantiruvchi ta'sir natijalarini qiyosiy baholash uchun zarur metodik asos yaratdi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: diagnostik-analitik bosqichda mavjud holat aniqlandi; innovatsion-transformatsion bosqichda mualliflik metodlari dars jarayoniga izchil joriy etildi; monitoring va samaradorlikni baholash bosqichida yakuniy natijalar qayta o'lchandi.

Tadqiqotning nazariy bazasini kreativlikning kognitiv, shaxsiy, faoliyatli va ijtimoiy tabiatini ochib beruvchi

yondashuvlar tashkil etdi. Guilford va Torrance tomonidan ilgari surilgan ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va g'oyani boyitish mezonlari; Amabilening komponentli modeli; Craftning kundalik kreativlik konsepsiyasi; Deweyning tajribaga asoslangan ta'limi; Ritchhart, Church va Morrisonning fikrlashni ko'rinadigan qilish strategiyalari; Bybee tomonidan ishlab chiqilgan bosqichli o'qitish modeli metodik vositalarni loyihalashda nazariy tayanch bo'lib xizmat qildi [9–16].

Tajriba guruhlarida darslar “shakl–metod–vosita” birligi asosida tashkil qilindi. Faoliyat shakllari individual fikr yaratish, juftlikda aniqlashtirish, guruhda boyitish, umumiy sinf muhokamasida asoslash va yakunda reflektiv baholash izchilligida qo'llandi. Metodik ta'sir KOB — “Ko'rdim–O'yladim–Bilmoqchiman”, K-5B — “Kreativ besh bosqichli izlanish”, SDN — “Savol–Dalil–Natija”, KGT — “Kreativ g'oyalar transformatsiyasi”, KOTT — “Kreativ o'yinlashtirilgan ta'lim”, KRH — “Kreativ raqamli hikoya” va KDT — “Kreativ dizayn tafakkuri” vositasida amalga oshirildi. Ushbu metodlar darsning alohida epizodlari sifatida emas, balki “g'oya → dalil → ifoda → o'z-o'zini tahlil qilish” jarayonini boshqaruvchi tizim sifatida qo'llandi.

Diagnostic vositalar tarkibiga matn asosidagi ochiq topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, savol tuzish va dalillash vazifalari, muqobil yakun yaratish, gap va matnni qayta qurish, multimodal mahsulot tayyorlash, pedagogik kuzatuv, o'quvchining o'z-o'zini baholash varaqalari, o'qituvchi va ota-onalar so'rovnomalari kiritildi. Baholashda ijodiy g'oya yaratish, dalillash, kommunikativ ifoda, moslashuvchanlik va o'z-o'zini baholash indikatorlari qo'llandi. Natijalar “Ilk qadam qo'yuvchi”, “Bosqichma-bosqich rivojlanuvchi”, “Barqaror o'suvchi” va “Ijodiy cho'qqi” darajalari bo'yicha tavsiflandi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashda tavsifiy statistika, foizli taqsimot, o'rtacha qiymat, dispersiya va standart xatolik hisoblandi. Guruhlar o'rtasidagi farq Student va Welch t-testlari bilan tekshirildi, dispersiyalarning bir xilligi Fisher F-testi orqali baholandi. Amaliy ahamiyatni aniqlash uchun Cohenning effekt hajmi hisoblandi. Statistik tahlilda $F = 1,32$, $t = 6,67$, $p < 0,05$ va $d = 0,50$ ko'rsatkichlari metodik ta'sirning nafaqat statistik, balki pedagogik jihatdan ham ahamiyatli ekanini baholashga xizmat qildi [17; 18].

NATIJALAR

Nazariy va amaliy tahlil ona tili va o'qish savodxonligi darslarining kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini o'zaro bog'liq olti yo'nalishda tizimlashtirish imkonini berdi. Birinchi yo'nalish — matniy-semantik imkoniyat bo'lib, unda o'quvchi voqea, obraz, sabab-oqibat, muallif g'oyasi va yashirin ma'noni aniqlaydi, matnni shaxsiy tajribasi bilan bog'laydi va muqobil talqin ishlab chiqadi. Ikkinchi yo'nalish — lingvistik-transformativ imkoniyat: so'z tanlash, gapni qayta qurish, sinonimik variant yaratish, matnni dialog, xat, e'lon yoki tavsiya shakliga o'tkazish orqali fikrning ifoda variantlari kengayadi.

Uchinchi yo'nalish — muammoli-izlanish imkoniyati. O'quvchi tayyor javobni qabul qilish o'rniga savol tuzadi, muammoni aniqlaydi, ehtimoliy yechimlarni taqqoslaydi va qaror chiqaradi. To'rtinchi yo'nalish — argumentativ-kommunikativ imkoniyat bo'lib, unda “fikr — dalil — xulosa” zanjiri asosida o'quvchining mulohazasi mantiqiy va ishonchli shaklga keltiriladi. Beshinchi yo'nalish — multimodal-ijodiy imkoniyat: matn, rasm, audio, slayd, storyboard va kichik loyiha vositasida g'oya turli belgilar tizimida ifodalanadi. Oltinchi yo'nalish — reflektiv-baholash imkoniyati bo'lib, o'quvchi o'z mahsulining kuchli va zaif tomonlarini ko'radi, mezon asosida qayta ishlaydi va takomillashtiradi.

Mazkur imkoniyatlar variantlilik, psixologik xavfsizlik, izlanishga yo'naltirilganlik, matn bilan muloqot, hamkorlik, mezonli baholash va o'z-o'zini tahlil qilish tamoyillari asosida ro'yobga chiqadi. Variantlilik o'quvchini bitta javob bilan cheklamasdan, bir nechta g'oya va ifoda usulini ishlab chiqishga undaydi. Psixologik xavfsizlik noodatiy fikr bildirishdan cho'chimaslikni ta'minlaydi. Izlanishga yo'naltirilganlik savol, dalil va mustaqil xulosani faoliyat markaziga olib chiqadi. Hamkorlik esa individual g'oyani boshqa fikrlar bilan taqqoslash, boyitish va himoya qilishga imkon beradi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning vazifasi bir-birini takrorlash emas, balki kreativ faoliyatning turli bosqichlarini boshqarishdan iborat bo'ldi. KOB kuzatishdan talqin va izlanish savoliga o'tishni, K-5B muammoni anglashdan ijodiy mahsulot va refleksiya qadar bo'lgan bosqichlarni, SDN fikrni savol, dalil va xulosa asosida tartiblashni ta'minladi. KGT matn yoki vaziyatni boshqa nuqtayi nazardan qayta qurishga, KOTT o'yin elementlari orqali faol ishtirok va motivatsiyani kuchaytirishga, KRH matn, tasvir va ovozni multimodal mahsulotga birlashtirishga, KDT esa muammoni anglash, g'oya yaratish, prototip ishlab chiqish va sinashga yo'naltirildi. Ushbu metodlarning funksional tuzilishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida kreativlik kompetensiyasini rivojlantiruvchi metodik vositalar

Metod	Asosiy mexanizm	Kutiladigan mahsul	Baholash indikatorlari
KOB	Ko'rdim–O'yladim–Bilmoqchiman bosqichlari orqali kuzatishdan savolga o'tish	Uch ustunli jadval, talqin, izlanish savoli	Fakt aniqligi, talqin mantiqiyli, savol chuqurligi
K-5B	Qiziqtirish, izlanish, umumlashtirish, kengaytirish va refleksiya	Sxema, dalilli xulosa, mini-matn, muqobil yechim	Bosqichlar izchilligi, dalillilik, yangi vaziyatga moslash
SDN	Savol–Dalil–Natija zanjiri	Bir savol, ikki dalil va asoslangan natija	Savol aniqligi, dalil mosligi, xulosa asoslanganligi

Metod	Asosiy mexanizm	Kutiladigan mahsul	Baholash indikatorlari
KGT	Mazmunni qayta qurish, kontekst va nuqtayi nazarni o'zgartirish	Muqobil yakun, qayta tuzilgan matn, izoh	Variant farqliligi, originallik, sabab-oqibat izchilligi
KOTT	O'yinlashtirilgan faoliyat, mini-tanlov, rag'bat va reyting	Tasnif jadvali, gap yoki matn, dalilli izoh	Aniqlik, tezkorlik, hamkorlik, metakognitiv nazorat
KRH	Matn, rasm va audio uyg'unligi	Slyd, storyboard, audio izohli hikoya	Mazmun mosligi, multimodal uyg'unlik, ifoda ravonligi
KDT	Empatiya-muammo-g'oya-prototip-sinov	Muammo bayoni, prototip, takomillashtirish rejasi	Muammo aniqligi, yechim amaliyligi, refleksiya mazmuni

Metodlarning dars mazmuniga mos qo'llanishi ularning samaradorligini belgilovchi muhim shart bo'ldi. Masalan, 3-sinf o'qish savodxonligi darsidagi "Tabiat zanjiri" mavzusida KOB metodi yordamida o'quvchilar rasm va matndagi faktlarni ajratdi, bog'lanishlarning sababini izohladi hamda "Zanjirning bir bo'g'ini yo'qolsa, nima bo'ladi?" kabi izlanish savollarini tuzdi. "Bir butun oy, o'n ikki yulduz" mavzusida SDN modeli yashirin ma'noni aniqlash, Tohirning xatti-harakatiga matndan dalil topish va rostgo'ylik haqidagi xulosani asoslashga xizmat qildi. "Agar Tohir rostini aytganida, voqea qanday tugardi?" topshirig'i esa dalillangan muqobil yakun yaratishni talab qildi.

4-sinf ona tili darsidagi "Son so'z turkumi" mavzusida KOTT texnologiyasi rebus, tezkor savol, mini-tanlov va mezonli baholashni birlashtirdi. O'quvchilar son qatnashgan topishmoq, gap va matnlar tuzdi, sonning ma'nosi va sintaktik vazifasini izohladi. Bunda grammatik bilim kreativ mahsulot yaratish bilan uyg'unlashdi. "Qarg'a va paxta" matnida KGT metodi voqeani boshqa qahramon nuqtayi nazaridan qayta bayon qilish, muqobil yakun yaratish va kiritilgan o'zgarish sababini tushuntirishga yo'naltirildi. Natijada originallik sabab-oqibat izchilligi bilan bog'landi.

KRH metodi "Vatan madhi dillarda" mavzusida kichik guruhlariga sarlavha, qisqa matn, tasvir va audio izohdan iborat raqamli hikoya tayyorlash imkonini berdi. KDT metodi "Arazchi svetofor" mavzusida yo'l harakati muammosini aniqlash, bir nechta yechim taklif qilish, eslatma yoki yo'l belgisi prototipini yaratish, uni vaziyatli topshiriqda sinash va takomillashtirish bosqichlarini qamrab oldi. Shunday qilib, fan mazmuni g'oyani tayyor javob sifatida emas, balki amaliy mahsulot sifatida shakllantirish imkonini berdi.

Tajriba-sinov natijalari metodik imkoniyatlarning o'quvchilarning kreativlik darajalariga ta'sirini ko'rsatdi. Dastlabki bosqichda tajriba guruhida "Ijodiy cho'qqi" darajasidagi o'quvchilar 8,7 foiz, "Barqaror o'suvchi" — 17,3 foiz, "Bosqichma-bosqich rivojlanuvchi" — 61,2 foiz va "Ilk qadam qo'yuvchi" — 12,8 foizni tashkil etdi. Nazorat guruhidagi tegishli ko'rsatkichlar 8,9; 16,9; 60,8 va 13,3 foiz bo'lib, guruhlarining boshlang'ich holati bir-biriga yaqin ekanligini tasdiqladi.

Yakuniy diagnostikada tajriba guruhida "Ijodiy cho'qqi" darajasi 25,7 foizga, "Barqaror o'suvchi" darajasi esa 32,4 foizga yetdi. "Bosqichma-bosqich rivojlanuvchi" daraja 33,5 foizga, "Ilk qadam qo'yuvchi" daraja esa 8,4 foizga kamaydi. Nazorat guruhida esa yuqori ikki daraja mos ravishda 10,6 va 22,2 foizni tashkil etdi, o'quvchilarning 55,8 foizi "Bosqichma-bosqich rivojlanuvchi", 11,4 foizi esa "Ilk qadam qo'yuvchi" darajada qoldi. Demak, tajriba guruhida yuqori darajalarga siljish ancha kuchli bo'ldi.

Yakuniy o'rtacha ko'rsatkich tajriba guruhida 3,77, nazorat guruhida esa 3,33 ni tashkil etdi. Samaradorlik koeffitsiyenti Buxoro viloyatida 1,130, Jizzax viloyatida 1,142, Toshkent shahrida 1,124 bo'lib, umumiy o'rtacha samaradorlik 1,132 barobar yoki 13,2 foizga yuqori ekanini ko'rsatdi. $t = 6,67$ va $p < 0,05$ qiymatlari kuzatilgan farqning statistik jihatdan ishonchligini, Cohen's $d = 0,50$ esa ta'sir hajmining pedagogik amaliyot uchun sezilarli ekanini ko'rsatdi. Ushbu natijalar metodlar, faoliyat shakllari, didaktik vositalar va mezonli baholashning yagona tizimda qo'llanishi o'quvchilarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

O'qituvchi va ota-onalar so'rovlari ham metodik ta'sirning tashkiliy shartlarini aniqlashga yordam berdi. O'qituvchining yo'naltiruvchi savollari, o'quvchi fikrini darhol rad etmasdan, uni aniqlashtirishga undashi, topshiriqlarda variantlilikni saqlashi va mezonlarni oldindan tushuntirishi ijodiy faollikni kuchaytirdi. Ota-onaning uy sharoitida ijodiy topshiriqni qo'llab-quvvatlashi, bolaning g'oyasini tayyor javob bilan almashtirmasdan tinglashi va raqamli mahsulot yaratishda texnik yordam ko'rsatishi dars va oilaviy muhit o'rtasidagi uzviylikni ta'minladi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari kreativlik kompetensiyasini alohida "ijodiy mashq" orqali emas, balki darsning maqsadi, mazmuni, faoliyat shakli, metodi, vositasi va baholash mezonlarining o'zaro uyg'unligi orqali shakllantirish zarurligini ko'rsatdi. Bu xulosa Amabilening kreativ natija bilim, kreativ jarayon va motivatsiya birligida yuzaga kelishi haqidagi qarashiga mos keladi [12]. O'quvchi matn mazmunini tushunmasa yoki til vositalaridan foydalana olmasa, faqat erkin tasavvur mazmunli kreativ mahsulot yaratish uchun yetarli bo'lmaydi. Shu bois tadqiqotdagi metodlar g'oya yaratishni matn dalili, til qoidasi, kommunikativ vaziyat va refleksiya bilan bog'ladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarining ustunligi shundaki, ular kreativlikning kognitiv va kommunikativ jihatlarini bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi. Matnni talqin qilish o'quvchidan yashirin bog'lanishlarni ko'rishni, qahramon harakatini baholashni va muqobil ssenariy yaratishni talab qiladi. Til birliklarini qayta qurish esa bir mazmunni turli shaklda ifodalash, so'z tanlash va nutqiy vaziyatga moslashishga olib keladi. Shuning uchun kreativlik ichki fikr jarayoni darajasida qolmay, og'zaki, yozma va multimodal mahsulotda namoyon bo'ladi. Bu holat Guilfordning

divergent fikrlash ko'rsatkichlarini kommunikativ va vazifaga mos natija bilan to'ldirish zarurligini ko'rsatadi [9].

KOB, K-5B va SDN metodlarining samaradorligi fikrlash jarayonini ko'rinadigan va boshqariladigan bosqichlarga ajratishi bilan izohlanadi. Ritchhart va hamkorlarining fikrlashni ko'rinadigan qilish yondashuvi o'quvchining kuzatuv, talqini va savolini tashqi ifodaga chiqarish orqali metakognitiv nazoratni kuchaytiradi [15]. K-5B metodi esa bosqichli izlanishni ijodiy mahsulot va refleksiya bilan yakunlab, faoliyatni natijaga yo'naltiradi. SDN modeli g'oyaning dalilsiz taxmin bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Shu tarzda kreativlik va mantiqiy asoslanganlik qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi sifatlar sifatida namoyon bo'ladi.

KGT, KRH va KDT metodlari kreativlikning transformativ va mahsulotli tomonlarini kuchaytirdi. KGT orqali nuqtayi nazar, kontekst yoki yakun o'zgartirilganda o'quvchi matnning asosiy mazmuniy bog'lanishlarini saqlash va yangilik kiritish o'rtasidagi muvozanatni topadi. KRH multimodal savodxonlikni rivojlantirib, matn, tasvir va ovoz o'rtasida mazmuniy uyg'unlik yaratishni talab qiladi. KDT esa kreativlikni real muammoni tushunish, foydalanuvchi ehtiyojini hisobga olish, yechimni prototiplash va qayta sinash bilan bog'laydi. Bunda o'quvchining g'oyasi amaliy va tekshiriladigan mahsulotga aylanadi.

Tajriba guruhida yuqori darajalarning sezilarli ortishi individual ishni hamkorlikdagi faoliyat bilan izchil bog'lashning samaradorligini ko'rsatadi. Sawyer yangi g'oya ko'pincha muloqotda shakllanishi va guruh a'zolari bir-birining fikriga qo'shimcha kiritishi orqali rivojlanishini ta'kidlaydi [13]. Biroq tadqiqotda hamkorlik individual fikrni almashtirmadi: avval mustaqil g'oya yaratish, keyin juftlikda aniqlashtirish, guruhda boyitish va umumiy muhokamada asoslash ketma-ketligi qo'llandi. Bu yondashuv kuchli o'quvchining guruh fikrini to'liq egallab olish xavfini kamaytirib, har bir ishtirokchining shaxsiy pozitsiyasini saqlashga yordam berdi.

Mezonli baholash natijadorlikning muhim omili bo'ldi. Kreativ topshiriqni faqat «qiziqarli» yoki «noodatiy» deb subyektiv baholash o'quvchiga rivojlanish yo'lini ko'rsatmaydi. G'oya ko'pligi, originallik, moslashuvchanlik, dalillilik, kommunikativ ifoda va refleksiya kabi indikatorlar esa o'quvchiga nimani yaxshilash kerakligini tushuntiradi. Lucas, Claxton va Spencer kreativlik rivojini sinfda kuzatish uchun jarayon va mahsulot ko'rsatkichlarini birlashtirish zarurligini qayd etadi [18]. Tadqiqotdagi to'rt darajali tizim aynan shu vazifani bajardi: o'quvchining holatini belgilash bilan birga, keyingi bosqichga o'tish mezonlarini ham ko'rsatdi.

Natijalarning uch hududda barqaror kuzatilgani metodikaning turli maktab sharoitlariga moslashuvchanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud. Birinchidan, tajriba 3–4-sinflar bilan chegaralangan; 1–2-sinflarda og'zaki, rasmiy va o'yinli tayanchlarning ulushi yuqoriroq bo'lishi sababli metodlar boshqa nisbatda qo'llanishi mumkin. Ikkinchidan, metodikaning samaradorligi o'qituvchining savol berish mahorati, psixologik xavfsiz muhit yaratishi va baholash mezonlarini to'g'ri qo'llashiga bog'liq. Uchinchidan, raqamli hikoya va multimodal mahsulotlar uchun texnik imkoniyatlar maktablar kesimida bir xil emas. Keyingi tadqiqotlarda metodlarning alohida ta'sirini, uzoq muddatli barqarorligini va turli sinf darajalaridagi modifikatsiyalarini o'rganish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, ona tili va o'qish savodxonligi darslarining metodik imkoniyatlari uchun darajada namoyon bo'ladi: mazmun darajasida — matn va til birliklari yangi g'oya uchun material beradi; jarayon darajasida — savol, dalil, muqobil talqin va hamkorlik fikrni rivojlantiradi; natija darajasida — o'quvchi og'zaki, yozma yoki multimodal ijodiy mahsulot yaratadi va uni mezon asosida takomillashtiradi. Mazkur uchlik kreativlik kompetensiyasini epizodik faoliyatdan barqaror o'quv natijasiga aylantiradi.

Mahalliy metodik tadqiqotlar ham mazkur xulosalarni qo'llab-quvvatlaydi. R. A. Mavlonova va N. H. Rahmonqulova boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarni o'quvchining faol bilish jarayoni bilan bog'lash zarurligini ta'kidlaydi [19]. F. N. Ehsonova kreativ sifatlarini shakllantirishda o'quvchi tashabbusi va ijodiy topshiriqlarning izchilligiga e'tibor qaratadi [20]. R. G. Safarova ta'lim mazmunini modernizatsiyalashtirishda kompetensiyaviy natija, amaliy faoliyat va baholashning uyg'unligini asoslaydi [21]. X. Sanaqulov va B. Xodiyevning boshlang'ich ta'lim mazmuniga innovatsion yondashuvlar haqidagi qarashlari esa dars materialini o'quvchi izlanishi uchun ochiq maydonga aylantirish zarurligini ko'rsatadi [22]. Ushbu yondashuvlar maqolada taklif etilgan metodik tizimning milliy pedagogik tajriba bilan uzviy bog'langanini ko'rsatadi. Demak, kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish xalqaro nazariyalarni bevosita ko'chirish emas, balki ularni ona tili va o'qish savodxonligi mazmuni, o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda maktab amaliyotining real imkoniyatlariga moslashtirishni talab qiladi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, ona tili va o'qish savodxonligi darslari matnni anglash, til birliklarini transformatsiya qilish, savol qo'yish, dalillash, muqobil yechim yaratish va kommunikativ ifodani o'zaro bog'lash imkoniyati tufayli boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarali didaktik maydon hisoblanadi.

Ikkinchidan, kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish tasodifiy ijodiy topshiriqlar yig'indisi emas, balki variantlilik, psixologik xavfsizlik, izlanishga yo'naltirilganlik, hamkorlik, mezonli baholash va refleksiya tamoyillariga tayangan yaxlit metodik jarayondir. Ushbu jarayonda o'quvchi tayyor javobni takrorlovchi emas, balki mazmunni tahlil qiluvchi, yangi g'oya yaratuvchi va qarorini asoslovchi faol subyektga aylanadi.

Uchinchidan, KOB, K-5B, SDN, KGT, KOTT, KRH va KDT metodlarini «g'oya → dalil → ifoda → o'z-o'zini tahlil qilish» izchilligida qo'llash kreativ faoliyatning kognitiv, kommunikativ, transformativ va refleksiv tomonlarini birlashtiradi. Metodlarning fan mazmuniga moslashtirilishi o'quvchilarda nafaqat originallik, balki g'oyaning mazmuniy asoslanganligi va amaliy qiymatini ham rivojlantiradi.

To'rtinchidan, tajriba-sinov natijalari taklif etilgan metodik tizimning samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhining yakuniy o'rtacha ko'rsatkichi 3,77, nazorat guruhiniki esa 3,33 bo'lib, umumiy samaradorlik 13,2 foizga yuqori bo'ldi. Yuqori kreativlik darajalaridagi o'quvchilar ulushining ortishi va quyi darajalarning kamayishi

metodikaning o'quvchi rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Beshinchidan, metodikaning amaliy samaradorligi o'qituvchi-o'quvchi-ota-ona hamkorligi, o'qituvchining fasilitatorlik pozitsiyasi, o'quvchining mustaqil faoliyati va oiladagi qo'llab-quvvatlashning uyg'unligiga bog'liq. Shu sababli kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan darslarni loyihalashda topshiriq, metod va vosita bilan birga ta'limiy muhit ham alohida hisobga olinishi lozim.

Amaliyot uchun ona tili va o'qish savodxonligi darslarida har bir mavzu doirasida kamida bitta ochiq yechimli savol, bitta dalillash vazifasi, bitta transformativ yoki multimodal mahsulot va qisqa refleksiya bosqichini rejalashtirish tavsiya etiladi. Bunday izchillik kreativlikni bir martalik faoliyat emas, balki darsdan darsga rivojlanadigan barqaror kompetensiya sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. – 2023.
2. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2023.
3. OECD. PISA 2022 Results. Vol. III: Creative Thinking in the Classroom. – Paris: OECD Publishing, 2024.
4. Mullis I. V. S., Martin M. O. (Eds.). PIRLS 2021 International Results in Reading Literacy. – IEA, 2023.
5. Qosimova K. Q., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2022.
6. Hamrayev A. R. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019.
7. G'oziyev E. G'. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2001.
8. Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M., To'rayev A. B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Sano-standart, 2015.
9. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
10. Torrance E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. – Scholastic Testing Service, 1974.
11. Craft A. Creativity in Schools: Tensions and Dilemmas. – London: Routledge, 2005.
12. Amabile T. M. Creativity in Context. – Boulder, CO: Westview Press, 1996.
13. Sawyer R. K. Explaining Creativity: The Science of Human Innovation. 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2012.
14. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
15. Ritchhart R., Church M., Morrison K. Making Thinking Visible: How to Promote Engagement, Understanding, and Independence for All Learners. – San Francisco: Jossey-Bass, 2011.
16. Bybee R. W. The BSCS 5E Instructional Model and 21st Century Skills. – Washington, DC: National Academies Board on Science Education, 2009.
17. Glass G. V., Stanley J. C. Statistical Methods in Education and Psychology. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1970.
18. Lucas B., Claxton G., Spencer E. Progression in Student Creativity: Diagnosing Approaches to Assessment in the Classroom // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. – 2013. – Vol. 20, No. 1. – P. 5–20.
19. Mavlonova R. A., Rahmonqulova N. H. Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Navro'z, 2018.
20. Ehsonova F. N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari // Pedagogik mahorat. – 2021. – № 3. – B. 112–118.
21. Safarova R. G'. Umumiy o'rta ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.
22. Sanaqulov X., Xodiyev B. Boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2017.
23. Kaufman J. C., Beghetto R. A. Beyond Big and Little: The Four C Model of Creativity // Review of General Psychology. – 2009. – Vol. 13, No. 1. – P. 1–12.